

Raxmatov Yashin Yarashovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistri

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MALAKALI KADRLAR
TAYYORLASH NATIJASIDA KICHIK BIZNES VA
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda professional ta'limning ahamiyati va uning hayotda tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, zamonaviy innovatsiyalar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, biznes, xususiy tadbirkor.

Rakhmatov Yashin Yarashovich
Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan
Master of the Higher School of Business and Entrepreneurship

**DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND
ENTREPRENEURSHIP AS A RESULT OF TRAINING QUALIFIED
PERSONNEL IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM**

Abstract: This article talks about the importance of professional education in the development of small business and private entrepreneurship and its role in life.

Key words: Action strategy, modern innovations, vocational schools, colleges, technical schools, business, private entrepreneur.

Bugungi kunda mehnat bozoridagi ehtiyojlar, masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi kishilarning "Umri davomida ta'lim olish" usuli yordamida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirish professional ta'limning maqsadi hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi"¹- deb alohida ta'kidlangan. Harakatlar strategiyasida mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash tizimini kengaytirish vazifalari belgilangan². Bu borada yurtimizimizda amalga oshirilayotgan keng miqiyosdagi islohotlar Respublika iqtisodiyotida bir muncha sezilarli rivojlanish ko'zga tashlandi, rivojlanish jihatdan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar amalga oshdi. Iqtisodiyotning barcha soxalariga zamonaviy innovatsion texnologiyalar shiddat odimlamoqda. Sanoatda, qishloq xo'jaligida, transport va xizmat ko'rsatish soxalarida yuqori qiymat, yuqori hosildorlik, unumdorlik va tejamkorlikni ta'minlovchi zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish sohasida juda keng ko'lamdagi innovatsiyalar tadbiriq qilinmoqda. Ushbu jarayonlarga milliardlab AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda va minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Birgina 2019 yilning o'zida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 220,7 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi,

¹ <https://lex.uz/docs/-3913188>

² <https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>

shundan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 189,9 trillion so'm ekanligi va bu 2018 yilgi ko'rsatkichlariga nisbatan 1,3 barobar o'sganligi yaqin kelajakda mazkur loyihalar yuqori malakali professional kadrlarning yangi avlodi yetishib chiqishi zarurligini belgilab bermoqda³. Shu bilan birga, xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davrida zamon talablariga mos bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashni, kasb-hunar ta'lim sohasida yangi tizimni - xalqaro andozalarga mos professional ta'lim tizimini talab qildi. Natijada kasb-hunar ta'limi tizimida ham davlat siyosati tubdan o'zgardi. Prezidentimiz tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta'lim tizimini yaratishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so'z bilan aytganda, tizimning yangi yo'nalishi belgilab berildi. Ushbu yo'nalish mohiyati yangi sifat va formatda inson resurlarini yanada rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni shakllantirish, ularning Ona Vatanga bo'lgan sevgisini, xalqiga sadoqatini yanada rivojlantirishdan iboratdir. Shu tariqa tizim oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash;

- yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish;

- o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

Ana shu missiya va maqsadlarni ko'zlab, Prezidentimizning 2019-yil 6-sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni⁴ qabul qilindi. Mazkur

³ Review.uz/uz

⁴ <https://lex.uz/docs/-4500926>

Farmon O'zbekiston tarixida yangi professional ta'lim tizimini tashkil etishga asos bo'lgan bo'lsa, 2020-yil 24-yanvarda davlatimiz rahbari o'z Murojaatnomasida "Joriy o'quv yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tashkil etiladi" deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta'kidladi⁵. Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi tez sur'atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun ishchi kasblar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanishi ko'zda tutildi. O'z navbatida, yangi tizimning barcha huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. Jumladan, yaqinda "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi hukumat qarori e'lon qilindi⁶. Qaror bilan uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom⁷, Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi⁸, O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi⁹ hamda O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi¹⁰ tasdiqlandi. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida tashkil etiladigan 3 ta toifadagi ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Joriy etilayotgan yangi tizim xalqaro andozalarga to'la mos bo'lishi uchun 14 ta xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Germaniya, Shveysariya, Koreya, Turkiya va Xitoy hamda YuNESKO, Britaniya Kengashi, Germaniya xalqaro

⁵ 2020-yil 24-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga joriy yil va kelgusidagi mamlakatimiz taraqqiyotining eng ustuvor vazifalari to'g'risida Murojaatnomasi

⁶ <https://lex.uz/docs/-4945840>

⁷ <https://lex.uz/docs/-4945840>

⁸ <https://lex.uz/docs/-4945840>

⁹ <https://lex.uz/docs/-4945840>

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-4945840>

hamkorlik jamiyati, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa taʼlim fondi, Turkiya hamkorlik agentligi, Xitoyning Universitetlar uyushmasi kabi qator xorijiy davlat va tashkilotlardan 200dan ortiq nufuzli xalqaro ekspertlar jalb qilindi. Yangi professional taʼlim muassasalarida taʼlim mazmuni, soni va sifati, taʼlim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha oʻzgarishlar amalga oshirildi. Birinchidan, 2020/2021-o.,quv yilida professional taʼlim tizimida respublika boʻyicha jami 725 ta taʼlim muassasasi, yaʼni 339 ta kasb-hunar maktabi, 200 ta kollej va 186 ta texnikum faoliyat koʻrsatishi belgilandi. 1-toifa - kasb-hunar maktablarida taʼlimning xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik taʼlim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlangʻich professional taʼlim oladi. Kasb-hunar maktablarida ustuvor yoʻnalish sifatida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat koʻrsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim oʻrin egallagan 200 dan ortiq ishchi kasblar boʻyicha kadrlar yetishtirildi. Kambagʻallikka qarshi kurash borasida, avvalo, ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalar farzandlarida tadbirkorlikka va biznesga oid bilim, malaka, koʻnikmalar rivojlantiriladi. 2-toifa – kollejlarda taʼlimning xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, 2 yilgacha boʻlgan muddatlar davomida oʻqitishga moʻljallangan taʼlim dasturlari asosida oʻrta professional taʼlim mutaxassisleri tayyorlanadi. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tasarrufida faoliyat koʻrsatadigan va shu sohadagi aniq ish oʻrni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablarning 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi. Kollejlarda Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan “dual” taʼlim prinsiplari joriy etiladi: oʻquvchilar haftaning maʼlum kunlarida kollejda nazariy bilim oladi, boshqa kunlari korxonaning oʻzida birlashtirilgan usta rahbarligida toʻgʻridan-toʻgʻri kelajakda ishlaydigan ish oʻrnida amaliyot oʻtaydi. 3-toifa – texnikumlarda taʼlimning xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos

keluvchi, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar o'qitiladi. 2 yillik tahsildan so'ng bitiruvchilar oliy ta'lim muassasasida o'qigan kasbi bo'yicha suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin. Bu tizim oliy ma'lumot olish istagida yurgan ko'plab maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini yaqin yillarda 50-60 foizga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Professional ta'limning yangi tarmog'ida faoliyat olib borayotgan direktorlar, direktor o'rinbosarlari, o'qituvchi pedagoglar, ishlab chiqarish ustalarini saralash, tanlash, tayinlash, qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish, ularning maqomini belgilash va mehnatini rag'batlantirishning yangi tartiblari ishlab chiqiladi. Professional ta'lim jarayoniga keyingi yillarda milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda Respublikada ishga tushirilgan innovatsion ishlab chiqarish quvvatlari, sanoat, ishlab chiqarish, agrar sohalaridagi yirik korxonalar, innovatsion biznes va tadbirkorlik sub'yektlari, AKT, turizm va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida zamonaviy texnologik tarmoqlarini boshqarishda ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar, ish yurituvchilar, injener-texnologlar, agronomlar va masterlar jalb qilindi. Shu vazifalarning bosqichma-bosqich amalga bajarilishi esa iqtisodiyotni yanada taraqqiy ettirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar va xotin-qizlarning hayotda muhim o'rin topishi, xalqimiz turmushining yaxshi tomonga o'zgartirish masalalarining ijobiy hal etilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2020-yil 24-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga joriy yil va kelgusidagi mamlakatimiz taraqqiyotining eng ustuvor vazifalari to'g'risida Murojaatnomasi.

2. Verbitskiy A.A. Kompetentsiya yondashuvi va kontekstli ta'lim nazariyasi. - M.: Mutaxassislarni tayyorlash sifati muammolari ilmiy markazi, 2004. - 84 b.